



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 29-iyul, № 153 (9048)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MADANIYAT SOHASINI YUKSALTIRISH BO'YICHA YANGI LOYIHALAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev madaniyat va san'at sohasida boshqaruvni takomillashtirish, hunarmandchilikni rivojlantirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Xalqimizning ulkan ma'naviy merosi bor. Bugungi kunda odamlarning intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlari muttasil ortib bormoqda. Shu bois madaniyat sohasida boshqaruv va moliyalashtirishni takomillashtirish, bu borada ilg'or xorijiy tajribani joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Xususan, madaniyat markazlarida davlat-xususiy sheriklik yo'lga qo'yilib, ijodiy ishlanmalarni rag'batlantiruvchi startap loyihalar amalga oshiriladi. Yoshlarda vatanparvarlik hissini kuchaytiruvchi, O'zbekiston brendini yaratuvchi tarixiy, ilmiy va animatsion milliy mahsulotlar ko'rib chiqiladi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga tashrif chog'ida xalq artisti Sherali Jo'rayev xotirasini abadiylashtirish tashabbusini bildirgan edi. Shunga muvofiq Andijon shahridagi san'at maktabi negizida ijodkor nomidagi musiqa va san'at oliy maktabi tashkil etiladi. Har yili Sherali Jo'rayev nomidagi milliy qo'shiqchilik teletanlovi o'tkaziladi.

Oliy maktabda ilmiy-ijodiy laboratoriya tuzilib, Sherali Jo'rayev qo'shiqlarining "oltin fondi" yaratiladi. Zamonaviy ovoz yozish va tasvirga olish studiyasi tashkil etilib, ijodkor yosh ijodkorlar undan imtiyozli foydalanishi mumkin bo'ladi.

Hozir yurimda O'zbekiston davlat simfonik orkestri hamda filarmoniya tarkibida 8 ta professional orkestr faoliyat yuritmoqda. Lekin ular faqat Toshkent shahrida, respublika darajasidagi tadbirlarda ishtirok etadi xolos.

tamomlagan eng faol bitiruvchilar chet elga magistraturada o'qishga yuboriladi hamda iqtidorli talabalarning nufuzli xalqaro tanlovlardagi ishtiroki qo'llab-quvvatlanadi.

Davlatimiz rahbari milliy va jahon san'atining sara asarlarini aholiga chuqur yetkazish, tuman va shaharlarga gastrol safarlari uyushtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Madaniyati boy va rang-barang yurtimizda kreativ iqtisodiyot ravnaqi uchun juda keng imkoniyatlar bor. Bugungi kunda bu sohada 14 mingta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularda qariyb 100 ming kishi ishlayapti. Kelgusi 5 yilda kreativ iqtisodiyot hajmini 2 karra ko'paytirish, yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5 foizga yetkazish maqsad qilingan.

O'tgan yili bu borada qonun qabul qilindi. Toshkentda Kreativ iqtisodiyot bo'yicha to'rtinchi butunjahon konferensiyasi o'tkazildi.

Shu bois bunday orkestrlarni joylarda ham bosqichma-bosqich tashkil qilish rejalashtirilgan. Jumladan, Farg'ona viloyatida simfonik orkestr va milliy cholg'ular orkestri tuziladi. Ular zarur musiqa asboblari, ovoz kuchaytirish va yoritish uskunlari, sahna liboslari va boshqa anjomlar bilan ta'minlanadi.

Davlatimiz rahbari milliy va jahon san'atining sara asarlarini aholiga chuqur yetkazish, tuman va shaharlarga gastrol safarlari uyushtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Madaniyati boy va rang-barang yurtimizda kreativ iqtisodiyot ravnaqi uchun juda keng imkoniyatlar bor. Bugungi kunda bu sohada 14 mingta korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularda qariyb 100 ming kishi ishlayapti. Kelgusi 5 yilda kreativ iqtisodiyot hajmini 2 karra ko'paytirish, yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 5 foizga yetkazish maqsad qilingan.

O'tgan yili bu borada qonun qabul qilindi. Toshkentda Kreativ iqtisodiyot bo'yicha to'rtinchi butunjahon konferensiyasi o'tkazildi.

YUNESKO, YUNKTAD, Jahon intellektual mulk tashkiloti kabi xalqaro tuzilmalar, Fransiya, Italiya, Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Qatar kabi davlatlar bilan keng hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Kreativ industriyaning eng katta sohaslaridan biri — hunarmandchilik. Yilning o'tgan davrida bunday mahsulotlar eksporti 6,5 million dollarni tashkil qildi.

Taqdimotda hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflar ko'rib chiqildi. Jumladan, Buyuk Britaniya Qirolik fondi bilan hamkorlikda Toshkent shahrida akademik platforma yaratish rejalashtirilgan. U orqali magistratlar tayyorlash, tadqiqotlar o'tkazish, o'quv qo'llanmalarini joriy etish yo'lga qo'yiladi. Bu platforma bilan 3 mingdan ziyod iqtidorli hunarmandlar bosqichma-bosqich qamrab olinadi. Keyinchalik uni amaliy san'at maktabiga aylantirish ko'zda tutilgan.

2023-yilda Buxoro "Hunarmandchilik va xalq san'ati" yo'nalishida YUNESKoning kreativ

shaharlar tarmog'iga kiritilgan edi. U yerda 2 ming nafar hunarmand 36 ta yo'nalishda ijod qiladi.


Sentyabr — noyabr oylarida Buxoroda birinchi zamonaviy san'at biyennalesi o'tkaziladi. Unga 40 ta davlatdan 70 nafar mashhur rassom tashrif buyuradi.

Davlatimiz rahbari madaniy turizmni rivojlantirishga katta turtki beradigan bunday yirik tadbirlarni yuqori saviyada tashkil qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Turizm bo'yicha yana bir salohiyatli hudud — Qoraqalpog'iston. Hozir u yerda 2 ming nafar yosh milliy hunarmandchilik bilan professional shug'ullanyapti. Yana ko'plari shu kasblarni egallamoqchi.

Shu bois Nukusdagi "Istiqlol" bog'ini kreativ klasterga aylantirib, unda hunarmandlar va dizaynerlarga an'anaviy bilim va innovatsion g'oyalarni birlashtirgan holda ta'lim beradigan Orol maktabini tashkil qilish mo'ljallangan.

Mutasaddirlarga loyihalarni sifatli bajarish va tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.



Faxr

YOZGI UNIVERSIADA O'YINLARIDA TARIXIY NATIJA



16 – 27-iyul kunlari Germaniyaning Reyn-Rur mintaqasidagi 6 ta – Boxum, Duysburg, Essen, Myulxaym-ander-Rur, Xagen va Berlin shaharlarida yuqori saviyada o'tkazilgan Butunjahon yozgi universiada o'yinlari mamlakatimiz sport delegatsiyasi uchun tarixiy natija bilan yakunlandi. O'zbekiston vakillari musobaqa yakunlariga ko'ra 4 ta oltin, 4 ta kumush, 7 ta bronza – jami 15 ta medalni qo'lga kiritdi.

Har ikki yilda uyushtiriladigan mazkur katta sport festivali joriy mavsumda o'ttiz ikkinchi bor tashkil etildi. Unda jahonning 113 davlatidan 18 ta sport turi bo'yicha jami 5 100 nafardan ziyod talaba-sportchilar g'oliblik uchun bahs olib bordi.

O'zbekiston delegatsiyasi navbatdagi yozgi universiada o'yinlarida kamondan otish, sport gimnastikasi, yengil atletika, suvga sakrash, dzyudo, badiiy gimnastika, eshkaq eshish, suzish, stol tennis, taekvondo WT va tennis kabi sport turlarida 18 ta oliy ta'lim muassasasida tahsil oluvchi 53 nafar talabadan iborat tarkib bilan ishtirok etdi.

Sportchilarimizdan

badiiy gimnastikachimiz Taxmina Ikromova 4 ta – ikkita dan oltin va kumush medallarni o'lga kiritgan musobaqaning kutilmagan natijasi bo'ldi. U halqa yo'nalishidagi harakatlari tufayli universiada o'yinlari chempioniga aylandi. Shuningdek, tasnadagi dasturda eng yuqori ballni jamg'ardi hamda o'zining ikkinchi oltin medalini qo'lga kiritdi. Bulava bahslari hamda ko'pkurash chiqishlarida ham muvaffaqiyatli qatnashib, ikkita kumush medalga sazovor bo'ldi.

Butunjahon yozgi universiada bahslari taekvondochilarimiz uchun ham katta yutuqlar bilan yakunlandi.

ANDIJON VILOYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI TAKLIFLAR KO'RIB CHIQLIDI

Davlatimiz rahbariga Andijon viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalar yuzasidan axborot berildi.

O'zbekiston Prezidentining 2024-yil 18-noyabrdagi qarori bilan Andijon viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari belgilangan edi. Jumladan, bu yil 3,1 milliard dollar investitsiya olib kelish, 1,5 milliard dollar eksport qilish, 305 ming odamning bandligini ta'minlash, 32 mingdan ziyod oilalarni kambag'allikdan chiqarish ko'zda tutilgan.

Viloyatda yil boshidan buyon 1 milliard dollarlik yangi quvvatlar, 344 ta savdo va servis majmuasi ishga tushgan. Yana 2,5

milliard dollarlik loyihalar boshlangan. O'tgan 6 oyda 850 million dollar investitsiya jalb etilib, eksport 465 million dollarni tashkil etgan.

Davlatimiz rahbarining shu yil apreldagi viloyatga tashrif hamda unda belgilangan vazifalar hudud rivojiga qo'shimcha turki berdi. Yaqinda ilmiy ekspertlar, faol tadbirkorlar ishtirokida "Islohotlar shtabi" tuzildi. Ular tomonidan iqtisodiy-ijtimoiy sohalarga oid yangi takliflar ishlab chiqilgan.

Taqdimotda mutasaddirlar ularning asoslari va samaradorligi bo'yicha axborot berdi.

Masalan, 40 million dollar sarmoya evaziga Germaniya, Turkiya va Yaponiyadan robot-tehnologiya olib kelib, innovatsion klinika barpo etish rejalashtirilgan. Yoki elchilar yordami bilan agroklastar tashkil qilishga Italiyadan 20 million yevro, zamonaviy agrologistika majmuasi qurishga Germaniyadan 25 million yevro jalb etilishi mo'ljallangan. Xonobod shahri, Xo'jaobod va Buloqboshida turistik maskanlar tashkil qilish bo'yicha 30 dan ziyod tashabbuslar bildirilgan.

Umuman aytganda, 1 milliard 100 million

dollarlik qo'shimcha loyihalar shakllantirilgan. Ularning natijasida 22 ming ish o'rni, qo'shimcha 200 million dollarlik eksport imkoniyati ochiladi.

Davlatimiz rahbari viloyatdagi har bir shahar va tumanga alohida yondashib, yangicha ishlab, yangi loyihalarni investitsiyasi kam hududlarga joylashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Ihsiz va ehtiyojmand oilalarni o'qitib, ishga joylashtirish, mahallalarni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

O'ZA.

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

MALAKALI YURIDIK YORDAM OLIISH HUQUQI VA XIZMATLAR KO'RSATISH KAFOLATI



Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan qator qonun loyihalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Tadbirkorlar va fraksiyasi yig'ilishida oshirgan tashrif haqida so'z ishbilanmonlar harakati dastlab davlatimiz yuritildi. Fraksiya a'zolari tashrif davomida Prezidentimiz

malakali yuridik yordam olish huquqi va xizmatlar ko'rsatish kafolati tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirish, aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishini qayd etgan holda bu borada partiya va uning fraksiyasi oldida turgan ustuvor vazifalarni belgilab oldilar.



PARLAMENTLAR SPIKER AYOLLARINING 15-SAMMITI BO'LIB O'TDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Shveysariyaning Jeneva shahrida Parlamentlararo Ittifoqqa a'zo davlatlar parlamentlari ayol spikerlarining 15-sammitida ishtirok etdi.

Xalqaro anjuman

Mazkur xalqaro platforma dunyo davlatlari parlamentlarining spiker ayollarini, shuningdek, inklyuzivlik, tinchlik va barqaror taraqqiyotni ilgari surishga hissa qo'shayotgan nufuzli xalqaro ekspertlarni birlashtiradi.

Anjuman dasturidan xotin-qizlarning tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi roli, BMT Xavfsizlik Kengashining 1325-sonli rezolyutsiyasini amalga oshirish masalalari, shuningdek, iqlim o'zgarishi, sun'iy intellektni rivojlantirish, gender va irqiy asosdagi onlayn zo'raonlik kabi zamonaviy tahdidlar muhokamasi o'rin olgan.

Sammitning birinchi sessiyasi kun tartibida "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik: 25 yildan keyingi natijalar va istiqbol" mavzui muhokama qilindi. Ikkinchi sessiyada esa ishtirokchilar yangi global tahdidlarni yengib o'tish yo'llarini ko'rib chiqib, bu borada tajriba almashdilar.

Shuningdek, tadbir doirasida o'tkazilgan debatlarida spiker ayollar gender tenglik va raqamli xavflar bilan bog'liq dolzarb masalalar bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirdi.

Parlamentlarning ayol spikerlari, xalqaro tashkilotlar vakillari hamda ekspertlar ishtirokida o'tgan sammitda ayollar yetakchiligi, ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, inklyuziv siyosatni ilgari surishga oid qator masalalar muhokama qilindi. Tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda parlament a'zolari bo'lgan xotin-qizlarning roliga alohida e'tibor qaratildi.

Sammitning birinchi sessiyasi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva ma'ruza qilib, BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilingan "Ayollar, tinchlik va xavfsizlik" rezolyutsiyasining asosiy qoidalari ishlab chiqilgan va tatbiq etilayotgan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan milliy strategiyada o'z aksini topanani ta'kidlaydi.



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIRISH HAJMI 4 FOIZ OSHDI

O'zbekistonda 2025-yilning birinchi yarmida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi 194,9 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 4,0 foiz oshdi.

Milliy statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra ushbu davrda dehqonchilik, chorvachilik va ovchilikda hamda ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 188,8 trln. so'mga, o'rmon xo'jaligida 4,7 trln. so'mga, baliqchilikda 1,2 trln. so'mga yetdi.



Fakt va raqamlar

Tahlillarga qaraganda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining ko'paygani agrar sohada barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanishida muhim omil bo'ldi. Ya'ni barcha toifadagi xo'jaliklarda mahsulot yetishtirish hajmi ko'payib, jumladan, baliq mahsulotlari 9,4 foiz, poliz hosili – 8,3, tuxum – 8,2, uzum – 7,8, meva – 6,6, don mahsulotlari 4,5 foiz oshdi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, bog' va dala ne'matlarining 75 foizi dehqon va tomorqachi vakillar, 20,1 foizi fermerlar, 4,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi boshqa uyushma va tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



PARLAMENTLAR SPIKER AYOLLARINING 15-SAMMITI BO'LIB O'TDI

O'zbekiston Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida taqdim etilgan "Gender tenglikka erishamiz: harakatlar ketidan harakatlar!" shiori ostida gender tenglikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha global kampaniyani ilgari surgan ilk mamlakatlardan biri bo'lgani alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, sammit davomida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini kuchaytirish, gender tenglik va tinchlik masalalari bo'yicha barqaror hamda muntazam parlamentlararo muloqotni rivojlantirishga qaratilgan takliflar bildirildi.

"Xalq so'zi".

OLIY TA'LIM KORRUPSIYASIZ TIZIMGA AYLANMOQDA

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burhonov hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov ishtirokida oliy ta'lim tizimida "Korrupsiyasiz soha" loyihasining ijrosi muhokama qilindi. Unda Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov ham ishtirok etdi.

Muhokama

Ta'kidlanganidek, loyiha doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS) joriy etilib, 35 turdagi ma'lumotlar raqamlashtirilgan.

"my.edu.uz" va "my.uzbmb.uz" axborot tizimlari joriy etilishi natijasida abituriyentlarning vaqtini tejash, xarajatlarni qisqartirish hamda ortiqcha byurokratik to'siqlarning oldini olishga erishilib, kirish imtihonlarining onlayn translyatsiyasi yo'lga qo'yilgan.

Muhokama jarayonida yuqorida tilga olingan ijobiy ishlar bilan bir qatorda loyihani amalga oshirishda kuzatilayotgan ayrim kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan o'zaro hamkorlikdagi vazifalar ham belgilab olindi.

Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida korrupsiyaga moyil bo'lgan lavozimlar

ro'yxatini shakllantirish va ushbu lavozimlarda ishlovchi shaxslarni har 3 yilda rotatsiya qilish tartibi ishlab chiqildi.

Shuningdek, barcha ta'lim muassasasida quyi va o'rta bo'g'indagi bo'sh lavozimlarga ochiq tanlov tizimi amaliyotga joriy etiladi hamda ta'lim muassasalaridagi bo'sh ish o'rinlari uchun "vacancy.edu.uz" platformasi orqali onlayn hujjat topshirish jarayoni qat'iy nazoratga olinadi.

Oliy ta'lim muassasalarining "komplayens-nazorat" tuzilmalarini xodimlarini rektorlar qaromog'idan chiqarib, to'g'ridan-to'g'ri vazirlikka bo'yusundirish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

Davlat xaridlari sohasida xarid ishtirokchilarini tekshirish va baholash samaradorligi oshiriladi.

Muhokama davomida mas'ullarga bir qator amaliy tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

"Xalq so'zi".

MAHALLIY KENGASHLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH — DAVR TALABI

Oliy Majlis Senati huzuridagi Hududiy vakillik organlari faoliyatini o'rganish markazi tomonidan Toshkent shahri va tumanlari xalq deputatlari Kengashlari deputatlari uchun "Mahalliy Kengashlar faoliyatini namunaviy tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari: muammo va yechimlar" mavzuida seminar tashkil etildi.

Seminar

Seminar mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik, ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport, agrar soha, suv xo'jaligi va ekologiya kabi yo'nalishlardagi doimiy komissiyalar faoliyati bo'yicha tajribalar taqdim etildi. Shuningdek, Kengash kotibiyatlari tomonidan Kengash ishlarini tashkiliy-texnik jihatdan boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Tadbir davomida mahalliy Kengashlar faoliyatini tashkiliy-huquqiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, norma ijodkorligini samarali tashkil etish, qarorlar qabul qilishda qonuniyligni ta'minlash,

mahalliy byudjet va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini shakllantirish hamda ijrosini nazorat qilish, ijroiya hokimiyat organlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, rejalashtirish va hisobot yuritish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, deputatlarining "mahalla yettilligi" bilan hamkorlikdagi faoliyati, ekspert guruhlari, yoshlar maslahat guruhlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan ishlash tajribasi yuzasidan fikr almashildi.

Mahalliy Kengashlar faoliyatini raqamlashtirish, "E-Kengash" tizimidan samarali foydalanish va ommaviy axborot vositalari bilan ishlashdagi zamonaviy yondashuvlar ham muhokama qilindi.

"Xalq so'zi".

MALAKALI YURIDIK YORDAM OLISH HUQUQI

Yig'ilishda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilganligi sababli amaldagi 9 ta kodeks va 71 ta qonun qayta ko'rib chiqilib, ularda nazarda tutilgan mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifa va funksiyalari "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida vakillik va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida qayta taqsimlanmoqda.

Shuningdek, mahalliy Kengashlarga hokimliklarning 28 ta vakolati hamda qonun hujjatlarida mahalliy davlat



organlariga esa qabul qilingan qonun hujjatlarini, dasturlar ijrosini ta'minlash, ijro bilan bog'liq boshqa vazifa va funksiyalar belgilanmoqda.

"Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasiga ko'ra, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari talabnomasi asosida mahalliy mehnat organlariga ro'yxati taqdim etilgan tazyiq va zo'rovonlikdan jabr ko'rgan tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xotin-qizlarning ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olinishi belgilanmoqda".

hokimiyati organlariga umumiy berilgan vakolatlarining aniqlashtirilishi natijasida yana qo'shimcha 33 ta, jami 61 ta vakolat o'tkazilmoqda.

Xususan, mahalliy vakillik organlariga joylarda rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, kompleks dasturlarni tasdiqlash, qonuniyligni ta'minlash borasidagi keng vakolatlar yuklatilmoqda.

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat

Fraksiya a'zolari qonun loyihasidagi ayrim normalar yuzasidan bir qator savollarni o'rtaga tashladi. Qonun tashabbuskorlari tomonidan berilgan tushuntirishdan so'ng ushbu hujjat qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Piroteknika buyumlarining muomalasi to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Fraksiya a'zosi Jumanazar Otajonov so'nggi paytlarda piroteknika buyumlarini mamlakatimizga qonunga xilof ravishda olib kirish, noqonuniy realizatsiya qilish, saqlash va ulardan foydalanish holatlarining ko'payishi fuqarolar hayoti va sog'ligiga, jamoat xavfsizligi va tartibiga, yong'in hamda boshqa favqulodda vaziyatlarning kelib chiqishiga yuqori darajada tahdid tug'dirayotganini ta'kidladi. Qonun loyihasi esa piroteknika buyumlari muomalasi sohasida davlat nazorati va ta'sir choralari samaradorligini oshirish, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish va undan jabrlanish holatlarini bartaraf etishga huquqiy asos yaratishini aytdi.

Yig'ilishda qonun loyihasi yuzasidan bir qator savollar ko'tarildi. Berilgan javoblardan so'ng loyiha qo'llab-quvvatlandi.

"Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ham atroflicha ko'rib chiqildi. Xususan, unga ko'ra "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari talabnomasi asosida mahalliy mehnat organlariga ro'yxati taqdim etilgan tazyiq va zo'rovonlikdan jabr ko'rgan tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xotin-qizlarning ish qidirayotgan shaxs sifatida ro'yxatga olinishi belgilanmoqda.

Munozaralarda deputatlar qonun

loyihasining ahamiyati va zaruratiga e'tibor qaratib, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlariga qator savollar berdi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida kam ta'minlangan shaxslarga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda insonning qonuniy huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda ularning malakali yuridik yordam olishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, fuqarolarga Konstitutsiya bilan kafolatlangan malakali yuridik yordam olish huquqidan to'liq foydalanish imkoniyati yaratildi.

Mazkur qonun bilan umumiy yurisdiksiya sudlarida davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar toifasi belgilab qo'yilgan. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kam ta'minlangan shaxslar Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilganda ularga davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish amaldagi qonunlarda tartibga solinmagan.

Qonun loyihasi bilan esa O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kam ta'minlangan shaxslarga o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risida

ISLOHOTLARNING IJTIMOIY SAMARADORLIGI UCHUN MAS'ULMIZ

Mamlakatimizda yurtdoshlarimizning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, mehnat qilishi, tibbiy va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi, uy-joyli bo'lishi uchun ustuvor vazifalar belgilanib, katta resurslar yo'naltirilmoqda.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshirishni muhim deb hisoblaydi hamda o'z faoliyatida doim shu maqsadga intiladi.

Sarhisob

So'l qanot partiya fraksiyasi sifatida faoliyatimiz davomida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning hayotiy ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni hal etish, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish, aholini kafolatli daromad manbai bilan ta'minlash bo'yicha choralar ko'rishda faol qatnashishga intilmoqdamiz.

Partiya elektorati ovozi parlament va hukumatga yetkazish, ularning manfaatlarini samarali himoya qilish hamda mamlakatda kuchli ijtimoiy siyosatni davom ettirish maqsadida Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi o'zini parlamentdagi muxolifat fraksiyasi deb e'lon qildi. Bu esa qonun loyihalari tanqidiy ko'rib chiqish, muqobil takliflar kiritish va hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, elektoratni o'ylantirayotgan masalalarni deputatlik nazorati tartibida o'rganish kabi vakolatlarimiz kengayib, aholi farovonligini ta'minlash borasidagi dasturiy maqsadlarimizni yanada kengroq ifoda etishga zamin yaratdi.

Parlamentda partiyamiz fraksiyasining muxolifat sifatidagi pozitsiyasi har bir deputat, har bir vakilimizdan tahliliy-tanqidiy yondashuvni, aniq takliflar va amaliy yechimlar berishni, shu orqali ta'sirchan siyosiy ishtirokni talab qiladi.

Qonun ijodkorligi va elektorat manfaati

Fraksiya tomonidan partiyamiz saylovoldi dasturida ilgari surilgan g'oya va tashabbuslarni amalga

oshirish, ijtimoiy sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirish, saylovchilar bilan muloqotni kuchaytirish, joylarda fuqarolarni o'ylantirib kelayotgan tizimli muammolarni tahlil qilib borish, ijro organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini o'rnatish bo'yicha muayyan ishlar bajarildi.

Ta'kidlash joizki, 2025-yil O'ZXP fraksiyasining qonun ijodkorligi bo'yicha amaliy ishlari bilan boshlandi. Xususan, partiya saylovoldi dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida fraksiyaning qonun ijodkorligi yo'nalishidagi rejasini tasdiqlandi.

Fraksiyamiz a'zolari joriy yilning olti oyida qo'mitalar bilan hamkorlikda 5 ta qonun loyihasi ishlab chiqilishida hamtashabbuskor bo'ldi.

Shuningdek, qonun loyihalarning xalqchilligi va keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri ishlashiga erishish maqsadida ular "markaz - viloyat - tuman" tizimi asosida partiya quyi bo'g'inlarida hamda mahalliy Kengashlardagi partiya guruhlarida muhokama qilinmoqda, hayotiy takliflar olinmoqda. Xususan, fraksiya tomonidan partiya bilan hamkorlikda 20 ga yaqin qonun loyihalarning joylardagi muhokamasi tashkil etildi. Ularda partiya faollari va keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan 30 ga yaqin takliflardan qonunlarni takomillashtirish jarayonida foydalanildi.

Parlamentdagi muxolifat fraksiya sifatida qonun ijodkorligida imkoniyatlarimiz kengaydi. Partiya elektorati manfaatlariga to'g'ri kelmagan qonun loyihalari fraksiyamiz

majlislarida konstruktiv muhokama qilinib, ular qayta ishlashga qaytarildi. Faqat rad etish bilan ish bitmaydi, biz loyihalarni takomillashtirish jarayonida bevosita ishtirok etyapmiz. Agar takliflarimiz hisobga olinmasa, pozitsiyamizni oxirigacha himoya qilyapmiz.

Tahlillarimizga ko'ra, qishloq xo'jaligi sohasida (jamoat va davlat xo'jaliklarida) ishlab pensiyaga chiqqan shaxslar, o'zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning oila a'zolari ijtimoiy manfaatlarini ta'minlashda o'z yechimini kutayotgan ayrim muammolar mavjud.

Shundan kelib chiqib, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning ayrim moddalariga o'zgartirish kiritishga qaratilgan qonun loyihasi bilan pensiya tayinlashdagi ayrim masalalarga yengillik berish ko'zda tutilmoqda.

Dori vositalari reklamasini turli ko'rinishlarda avj olayotgani, ba'zi shifokorlar tomonidan bemorlarga, asosan, qimmat dori vositalari tavsiya qilinayotgani, ular narxlarini sun'iy oshib ketayotgani, bunday salbiy holatlar barcha yurtdoshlarimizga ziyon yetkazayotgani, ayniqsa, kam daromadli oilalar qiyinchiliklarga duchor bo'layotgani kuzatilyapti. Ana shunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida qonun normalariga o'zgartirish kiritish ustida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Albatta, hali qonun ijodkorligi masalasida amalga oshiradigan ishlarimiz ko'p. Mahalla va okruglardagi saylovchilarimizni o'ylantirib kelayotgan masalalar tahlili asosida qonun tashabbuslarini ko'paytirishimiz zarur. Shunda ijtimoiy masalalarni tizimli hal etishga erishamiz.

Tahlil, so'rov va nazorat

Ijro hokimiyati organlari faoliyati ustidan ta'sirchan parlament va deputatlik

nazoratini o'rnatish, Qonunchilik palatasi majlislarida mansabdor shaxslarning axborotini eshitish bo'yicha tashabbus bilan chiqish borasidagi ishlar izchil davom ettirildi.

Joriy yilning olti oyida fraksiya a'zolari saylovchilar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va aholi murojaatlari hamda joylardagi uchrashuvlarda ko'tarilgan masalalar yuzasidan aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini bayon qilish talabi bilan mansabdor shaxslarga 22 ta deputat so'rovi yuborildi.

Fraksiya taklifiga ko'ra saylovchilarni o'ylantirib kelayotgan tizimli muammo va kamchiliklarni hal etish, joylarda qonunlar va davlat dasturlarining ijrosini ta'minlash, muhim soha hamda tarmoqlarda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan "Hukumat soati" o'tkazilib, Qonunchilik palatasi majlisida Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining axboroti eshitildi.

Fraksiyamiz mahalliy Kengash deputatlari bilan birga, ijtimoiy muammolarni o'rganishga, yechimlari bo'yicha takliflar tayyorlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, qurilish obyektlarida ishlayotgan fuqarolarning huquqlari va mehnat xavfsizligi bevosita o'rganib chiqildi.

Asosiy muammo qurilish ishlarida yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlar noraosmiy

ishlayotganiga guvoh bo'ldik. Mehnat shartnomasi bo'lmagandan keyin mehnat xavfsizligi ham katta so'roq ostida qolyapti. Bu borada asosiy mas'uliyat tadbirkor quruvchilar hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi zimmasida qolyapti. Biz ushbu masalada parlament muhokamasini o'tkazib, muammolarni hal qilishni rejalashtirib oldik.

Mas'uliyat – xalq ishonchiga munosib bo'lish

O'tgan davrda fraksiya a'zolari saylov okruglaridagi faoliyati davomida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, pensiya tayinlash, ta'limni rivojlantirish, aholini arzon uy-joy va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, sifatli ijtimoiy, kommunal va boshqa xizmatlar ko'rsatish, bandlik, kambag'allikni qisqartirish, Davlat byudjeti va hududlarda investitsiya dasturlari ijrosi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratdi.

Hisobot davrida fraksiya a'zolari saylovchilar bilan 606 ta uchrashuv o'tkazdi. 450 ga yaqin aholi xonadonlari hamda 651 ta ijtimoiy soha obyektining faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Va fraksiya a'zolari 20 mingga yaqin aholi vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar o'tkazdi.

O'rganishlar davomida aniqlangan dolzarb masalalar fraksiya majlislarida muhokama qilinib, tegishli vazirliklar, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlariga takliflar kiritib berildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi davr xalq ichida bo'lish, muammolarni eshitishning emas, balki ularni hal etish, tashabbus bilan chiqish, amaliy faollikni talab qiladi.

Bu o'rinda har bir deputat xalqning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi vakil ekanini unutmasligi lozimligini alohida ta'kidlamochimiz. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari o'z oldiga qo'ygan vazifalarda, eng avvalo, ijtimoiy tenglik, adolat va insonparvarlik tamoyillarini ustuvor deb biladi.

Ulug'bek INOYATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi
O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi
fraksiyasi rahbari.

VA XIZMATLAR KO'RSATISH KAFOLATI

Konstitutsiyaviy sudga murojaat etganda davlat hisobidan yuridik yordam olish huquqini belgilashga qaratilgan qo'shimchalar kiritilmoqda.

Yig'ilishda qonun loyihasidagi normalar atroflicha ko'rib chiqildi. Xususan, deputat Shuhrat Yakubov mazkur hujjat fuqarolarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga, davlat hisobidan malakali yuridik yordam olish huquqini ta'minlashga qaratilgan bilan ahamiyatli ekanini ta'kidledi.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasini qo'llab-quvvatladi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "Ijtimoiy ish to'g'risida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan ijtimoiy



himoya sohasidagi munosabatlarni tartibga solish nazarda tutilyapti.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoi shaxslar (oilalar)ning o'z

foydalanuvchilarning huquqlari va majburiyatlari belgilanmoqda.

Qonun loyihasida ijtimoiy xizmatlar va yordamning turli hamda shakllariga aniqlik kiritilmoqda. Jumladan, ijtimoiy xizmatlar birlamchi, ixtisoslashgan va yuqori ixtisoslashgan turlarga ajratilib, fuqaroning uyida, mahallasida, ijtimoiy obyektlarda hamda onlayn shaklda ko'rsatilishi nazarda tutilmoqda. Ijtimoiy xizmatlar va yordamni ko'rsatish shartnomasi asosida foydalanish hamda ularni ko'rsatishni tugatish asoslari ham qonun loyihasida aks etmoqda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasida belgilanayotgan me'yorlarni qo'llab-quvvatlagan holda, partiya elektorati manfaatlariga hamda Saylovoldi dasturida belgilangan g'oyalar amalga oshirishga xizmat qilishini qayd etib, ularni keng jamoatchilik orasida faol targ'ib qilish zarurligini alohida ta'kidledi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida atrof-muhit, hayvonot va o'simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirish, tabiiy

resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Qonun loyihasi bilan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Chiqindilar to'g'risida"gi qonunlarga, Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Jumladan, Konstitutsiyaning 49-moddasida nazarda tutilgan fuqarolarning atrof-muhit holati haqida ishonchli axborotga ega bo'lish huquqini ta'minlash uchun "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun avtomatik monitoring stansiyalari ma'lumotlarini Atrof-muhit davlat monitoring tizimining yagona geoaxborot ma'lumotlar bazasiga real vaqt rejimida kiritishni belgilovchi norma bilan ta'ldirilmoqda.

Chiqindilarni olib chiqib ketish choralarini ko'rmaganlik va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirmaganlik, ko'p kvartirali uyga tutash tuproq va yashil qoplamali yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan betonlashtirganlik hamda aholi punktlari va shahar markazlarida oldindan mavjud bo'lgan ariqlar, irrigatsiya tizimlarini o'zboshimchalik bilan ko'mib tashlaganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

Fraksiya a'zosi Oybek Rahimovning fikricha, qonun loyihasida belgilanayotgan normalar ekologik vaziyatni yanada yaxshilashga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

Muhokamalardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatladi.

"Xalq so'zi".

Munosabat

So'nggi yillarda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha vakolatlari kengaytirilib, xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. 2024-yil 23-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Farmoni bu boradagi ishlarni yanada jonlantirishda dasturlamal bo'lmoqda.

ENDI MAS'ULIYAT HAM, IMKONIYAT HAM O'ZIMIZDA

Ushbu hujjat mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini to'laqonli ro'yobga chiqarish, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal qilishda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish, fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash hamda hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida nomarkazlashtirishga qaratilgan bilan yanada ahamiyatlidir.

E'tiborli jihat, Farmon bilan taqdim etilgan qator imtiyozlar mahalliy Kengashlarning tashabbuskorligini oshirish bilan birga, ularning aholi muammolarini hal qilishida yanada ta'sirchan va mustaqil organ sifatida shakllanishiga hamda aholi va tadbirkorlar manfaatlariga qaratilganidir.

Misol uchun, amaldagi tartib bo'yicha viloyat yoki tuman markazidagi eski korxonalar binosini ijaraga berish va ijara stavkasini belgilash hokimlar vakolatida bo'lib kelgan. Bu jarayon ba'zan hokimlarning vaqti va qosh-qovog'iga qarab uzoq vaqt talab qilar edi. Endi bu masala mahalliy Kengashlarda ko'pchilik ovoz bilan hal bo'ladi.

Ulariga berilgan yana bir vakolatga ko'ra, mahalliy Kengashlar ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat

bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirishga mas'ul etib belgilandi. Bundan buyon deputatlar tomonidan mazkur toifadagi fuqarolarni ishga joylashtirish uchun har bir fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash hamda hududiy boshqaruvni "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida nomarkazlashtirishga qaratilgan bilan yanada ahamiyatlidir.

Shuningdek, mahalliy byudjet xarajatlarning muayyan qismini Kengash deputatlari tashabbusiga asosan shakllantirish amaliyoti ham yo'lga qo'yildi.

Mazkur Farmon mahalliy Kengashlarning byurokratik idora emas, balki xalqning muammolarini hal qilishda yanada ta'sirchan organga aylanishi uchun huquqiy poydevor yaratadi. Muhimi, bu vakolatlar xalq va deputat o'rtasidagi munosabatlarni yanada yaqinlashtiradi. Endi odamlar ko'z oldida mahalliy Kengash deganda, mahalliy byudjetni tasdiqlash uchun qo'l ko'tarib tushiradigan deputatlar emas, balki xalq ovozi eshitib, muammolarni hal qilish uchun ishlaydigan haqiqiy vakil namoyon bo'ladi, desak, mubolag'a emas.

Farrux ABDUHAMIDOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi eksperti,
xalq deputatlari Arnasoy tumani Kengashi deputati.

ish sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ijtimoiy ish sohasida maxsus vakolatli davlat organi hamda uning vakolatlari, ijtimoiy xodimning vazifalari va majburiyatlari belgilanmoqda.

Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar (oilalar) ning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ijtimoiy ishni tashkil etish hamda ijtimoiy

ijtimoiy vaziyatdan chiqishga va jamiyat hayotida ishtirok etishi uchun boshqa shaxslar bilan teng bo'lgan imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan kafolatlangan chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab berilmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (shaxs)ni aniqlash va ularni ijtimoiy himoyaga muhtoj oila (shaxs) deb topish asoslari, ijtimoiy xizmatlar va yordamdan

foydalanuvchilarning huquqlari va majburiyatlari belgilanmoqda.

Qonun loyihasida ijtimoiy xizmatlar va yordamning turli hamda shakllariga aniqlik kiritilmoqda. Jumladan, ijtimoiy xizmatlar birlamchi, ixtisoslashgan va yuqori ixtisoslashgan turlarga ajratilib, fuqaroning uyida, mahallasida, ijtimoiy obyektlarda hamda onlayn shaklda ko'rsatilishi nazarda tutilmoqda. Ijtimoiy xizmatlar va yordamni ko'rsatish shartnomasi asosida foydalanish hamda ularni ko'rsatishni tugatish asoslari ham qonun loyihasida aks etmoqda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasida belgilanayotgan me'yorlarni qo'llab-quvvatlagan holda, partiya elektorati manfaatlariga hamda Saylovoldi dasturida belgilangan g'oyalar amalga oshirishga xizmat qilishini qayd etib, ularni keng jamoatchilik orasida faol targ'ib qilish zarurligini alohida ta'kidledi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida atrof-muhit, hayvonot va o'simlik dunyosining muhofazasini kuchaytirish, tabiiy

Xalqlar do'stligi tarannumi

Tadbir

Chiroqchi tumanida
30-iyul - Xalqlar
do'stligi kuni oldidan
"O'zbekiston - yagona
Vatan!" shiori ostida
ma'naviy, madaniy
tadbir o'tkazildi.

Unda tumanda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari o'zlarining milliy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini, hunarmandchilik mahsulotlarini ko'rgazmalarini namoyish etdi. Turli tillarda yangragan kuy-

qo'shiqlar, ijro etilgan turfa raqslar tadbirga yanada shukuh bag'ishladi.

- O'zbekiston ko'plab millat vakillari ahil-inoq bo'lib yashayotgan jannatmakon yurtidir, - deydi tadbir

ishtirokchilaridan biri Raisa Sharafiddinova. - O'zbek va tatar xalqlari do'stligiga kelsak, ular necha asrlarki, qo'ni-qo'shni bo'lib, do'stona hayot kechirib kelgan. Xalqlarimizning dini

bir, dili bir, to'yu ma'rakasi bir. Bugungi tadbirga ham millatlar o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlikni namoyish etishga harakat qildik.

Xuddi shu kabi tadbirlar viloyatning boshqa hududlarida ham bo'lib o'tmoqda.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

GO'SHT NARXIGA QAYSI OMILLAR TA'SIR KO'RSATMOQDA?

"Xalq so'zi" gazetasining shu yil 11-iyul sonida "Go'sht arzon bo'ladi, ammo..." sarlavhali tahliliy maqola e'lon qilindi. Unda butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham keyingi paytda go'sht narxi oshayotgani haqida so'z yuritilib, buning asosiy sabab va omillari keltirilgan, shuningdek, narx-navo barqarorligini ta'minlash bo'yicha jo'yali takliflar ilgari surilgan. Bu keng jamoatchilik, xususan, soha mutaxassislari tomonidan iliq kutib olindi. Eng asosiy, ushbu masala yuzasidan o'z fikr-mulohazalarimizni bildirishga turtki bo'ldi.

Aks sado

Chindan ham, keyingi paytda go'sht narxi muhokamalar markazidagi mavzuga aylandi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari O'zbekistonda go'sht bahosi muttasil oshib ketayotgani, qo'shni davlatlarda, xususan, Qozog'istonda mamlakatimizdagi qaraganda arzon ekanini aytmoqda.

Aslida ham shundaymi? Eng muhim iste'mol mahsuloti bo'lgan go'sht narxi oshishiga qaysi omillar ta'sir qilmoqda?

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyoda aholi sonining ko'payib borayotgani, iqlim o'zgarishi hamda suv taqchilligi keskin tus olayotgani oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish va aholining ehtiyojlarini qondirishda murakkab vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Bu jarayonda sog'lom ovqatlanishga bo'lgan talabning ortishi tufayli bozorlarga ehtiyojga yarasha go'sht yetkazib berish masalasi global ahamiyat kasb etmoqda. Chunki go'sht inson organizmi uchun muhim bo'lgan oqsillar, temir, "B" guruh vitaminini va boshqa ozuqa moddalarining asosiy manbai hisoblanadi. Qolaversa, go'sht yetishtirish faqat oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan emas, qishloq xo'jaligi va veterinariya sohaslarida ish o'rinarini yaratish, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati rivoji va mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi jihatidan ham dolzarb hisoblanadi.

Darhaqiqat, samarali va

barqaror go'sht yetishtirish tizimini shakllantirish, chorvachilikda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yuqori mahsulodlikka ega zotlarni ko'paytirish va ozuqa bazasini mustahkamlash - mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Shu bois global iqlim o'zgarishlari ta'siri sharoitida chorva mollari oziqlantirish va bosh sonini ko'paytirish mashaqqatli bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda go'sht va go'sht mahsulotlarini yetishtirish ko'rsatkichida muttasil o'sish sur'ati saqlanib turibdi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2024-yil yakunida barcha toifadagi xo'jaliklarda parvarishlanayotgan qoramollar bosh soni 14,4 mln., qo'y va echkilar 24,6 mln. boshga yetkazilgan. Natijada tirik vaznda 2,9 mln. tonna go'sht va 12,4 mln. tonna sut olingan. Ushbu ko'rsatkich 2020-yildagi raqamlar bilan taqqoslanganda go'sht yetishtirish hajmi 120 foizga ko'payganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, oxirgi besh yilda xorijiy davlatlardan 733 ming bosh qoramol va 792 ming bosh qo'y-echki olib kelindi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tashabbusi bilan Mo'g'uliston "Bayad" zotli qo'ylar olib kelindi, mahalliy qo'y zotlari bilan chatishtirish orqali yangi zot yaratish ishlari olib borilmoqdaki, buning samarasi go'sht mahsulotlari ko'payishi va narxida yaqqol seziladi, albatta.

Endi ijtimoiy tarmoqlarda ko'tarilayotgan asosiy masala - nega Qozog'istonda go'sht narxi nisbatan

arzon ekanligi haqida mulohaza yuritsak. Buning o'ziga xos sabablari bor. Avvalo, Qozog'istonda yaylovlar 184,4 mln. gektardan ortiq. Bu - barcha qishloq xo'jaligi yerining 84,1 foizini tashkil etadi, degani. Shuningdek, yaylovlarning hosildorligi biddagiga nisbatan 5 - 8 sentner yuqori. Bundan tashqari, jami sug'oriladigan yer maydonining 3,3 mln. gektari chorva uchun ozuqabop ekinlar yetishtirishga ajratilgan bo'lib, bir shartli bosh mol soniga o'rtacha 0,59 gektardan to'g'ri keladi. Aholi jon boshi esa O'zbekistondagiga nisbatan 46,4 foiz kam, ya'ni 20 mln. 200 ming kishi. Shulardan kelib chiqib, holatni global iqlim o'zgarishlari ta'siri sharoitida chorva boqish xarajati kamligi va yetishtirilgan mahsulotning aholi o'rtasida taqsimotidagi tafovut bilan izohlash mumkin.

O'zbekistonda-chi? 16 mln. gektar yaylov bo'lsa, shundan qariyb 35 - 40 foizi degradatsiyaga uchragan, hosildorligi esa gektariga 1-2 sentnerni tashkil etadi. O'zbekistonda chorva uchun ozuqabop ekinlar yetishtirishga ajratilgan jami sug'oriladigan yer maydonlarining 430,1 ming gektari yoki bir shartli bosh mol soniga o'rtacha 0,19 gektardan to'g'ri keladi. Ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda chorva mollari boqish imkoniyatlari Qozog'istondagiga qaraganda cheklangan. Shunday bo'lishiga qaramay, mamlakatimizdagi shahar hamda qishloqlardagi bozorlar, yirik savdo majmualari rastasi go'sht va go'sht mahsulotlariga to'la.

Go'sht bahosi tahlil qilindagina, bir muhim jihat esdan chiqadi. Parranda va quyon go'shti hisobga olinmaydi. Vaholanki, O'zbekistonda parranda go'shti nainki Markaziy Osiyo, MDH bo'yicha ham eng past narxda. Jumladan, shu yilning fevralida parranda go'shtining o'rtacha bir kilosi Qirg'izistonda 4,2 dollar, Qozog'istonda - 3,0, O'zbekistonda esa 2,47 dollarga baholangan.

Yana qiziqarli fakt shundaki, parranda go'shtining jon boshiga o'rtacha iste'moli Angliyada 30,8 kilo, Rossiyada - 36,3, Qozog'istonda - 20,1, Belarussa 31,6 kiloga to'g'ri kelgani holda, O'zbekistonda bu raqam atigi 15,7 kiloni tashkil etadi. Agar aholi go'sht xaridida parhezop va shifobaxsh bo'lgan parranda go'shtini tanlasa, ham cho'ntagiga, ham sog'lig'iga foyda bo'ladi. Sababi parranda go'shti oqsilga boy bo'lib, mushaklar o'sishi, hujayralarning tiklanishi va immun tizimini quvvatlash uchun juda muhim. Uning

rivojlantirish orqali ham ta'minlash mumkin. Negaki, quyon go'shti yengil hazm bo'lishi, yuqori biologik va parhez qiymatga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun yurtimizda quyon go'shti yetishtirishga e'tibor kuchaymoqda. O'tgan yili mamlakatimizda 7873,0 tonna quyon go'shti ishlab chiqarildi.

Quyunchilik jihatdan tez yetiluvchanlik xususiyati bilan yetishtiriladigan go'sht tannarxi arzonroq tushadi. Ular 90 kunligida 3,2-3,5 kg. tirik vazniga yetadi va bir kg. tirik vazn

davlatlaridan keltirilgan embrionlar transplantatsiya qilinib, yuqori genetik imkoniyatlarga ega bo'lgan sog'lom buzoqlar olinmoqda. Bu buzoqlar kelgusida 10 ming kg.dan yuqori sut berish imkoniyatiga ega sigirlar bo'lib yetishadi.

Bundan tashqari, Janubiy Koreya olimlari bilan hamkorlikda respublikamizda ilk bor "aqlli" biosensolr orqali qoramollarni boshqarish texnologiyasini joriy qilish loyihasi boshlandi. Jaydari zotli qo'ylarning "Farg'ona-Rishton-Dasht" va "Aqchasay" tiplari yaratilib, jaydari zotiga nisbatan go'sht mahsulodligi 20 - 25 foiz yuqori bo'lishiga erishildi. Asosiy, ularning mahalliy iqlim sharoitiga yaxshi moslashganlik xususiyatlari saqlab qolindi.

Chorva mollari oziqlantirishda ozuqa muhim omillardan hisoblanib, institutimiz olimlari tomonidan keyingi yillarda ozuqabop ekinlardan yuqori hosil beradigan yangi navlar yaratildi. Jumladan, makkajo'xoring "O'zbekiston 2018", javdarning "Shalola" va ozuqabop lavlagning "Hosildor" navlari shular jumlasidan.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan oqilona siyosat, chorvachilikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli go'sht va go'sht mahsulotlari yetishtirish, qayta ishlash hamda aholi dasturxoniga yetkazib berishda barqaror va mustahkam tizim yaratildi. Natijada global iqlim o'zgarishi sharoitida ham chorva mollari parvarishlab, xalqimiz dasturxoniga go'sht va go'sht mahsulotlari tortiq etib kelinmoqda. Soha oldida turgan navbatdagi masala chorva mahsulodligini oshirish va go'sht yetishtirish tannarxini kamaytirish evaziga narx-navo mo'tadilligini ta'minlashdir.

A'zamjon NURMATOV,
Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori.

Regali profilaktika ishlarini amalga oshirish maqsadida 2-avgustdan boshlab poytaxtimizdagi yer usti metrosining "Texnopark - Yangiobod" yo'nalishidagi 6 ta bekat oraliq'ida poyezdlar harakati to'xtatiladi.

YOZGI UNIVERSIADA O'YINLARIDA TARIXIY NATIJA



Vakillarimiz aralash jamoaviy dastur finaligacha bo'lgan to'qnashuvlarda Avstraliya, Koreya Respublikasi, Germaniya kabi kuchli terma jamoalarni musobaqadan chiqarib yubordi. N. Qosimhojiyev, Sh. Karimboyev, M. Mirabzalova va D. Azizova to'rtligi finalda Misr taekvondochilarini 2:1 (21:12, 8:18, 13:13) hisobida taslim

etib, turnirning oltin medaliga ega chiqdi. Bu taekvondochilarimizning musobaqa doirasidagi birinchi, O'zbekiston delegatsiyasining esa uchinchi oltin medaliga aylandi. Milliy terma jamoamizning 87 kilogrammdan yuqori vazn toifasidagi vakili Marat Mavlonov sovrindorlar qatoridan joy oldi. U hal qiluvchi final bellashuvida

Najmiddin Qosimhojiyev va Madina Mirabzalova ham yakkaik turnirdagi ishtirokini muvaffaqiyatli yakunlab, bronza medalini sohibi bo'lishdi. Shuningdek, erkaklar o'rtasidagi jamoaviy dasturda Sh. Ahmedov, U. Turobov va M. Mavlonov uchligi musobaqada bronza medalini qo'lga kiritdi. Universiadaning to'rtinchi oltin

medali yengil atletikachimiz Sharifa Davronovaga nasib qildi. Uch hatlab sakrash dasturida ishtirok etgan sportchimiz 14,33 metrga sakrab, faoliyatidagi eng yaxshi natijani qayd etdi. Suzish bellashuvlarida Eldorbek Usmonov 50 va 100 metrga butterfly usulidagi bahslarda mos ravishda kumush hamda bronza medallarini qo'lga kiritdi. Shuningdek, dzyudochilarimiz Laziza Haydarova (-48 kg.) va Shukurjon Aminova (-57 kg.) Butunjahon yozgi universiada o'yinlarining bronza medaliga sazovor bo'ldi.

Ushbu natija bilan O'zbekiston sport delegatsiyasi 113 davlat orasida umumjamoa hisobida 13-o'rinni, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 1-pog'onani egalladi. Shunday qilib, vakillarimiz universiadalarda tarixdagi eng yaxshi natijani qayd etdi. Shuningdek, ilk bor suzish, badiiy gimnastika va yengil atletika sport turlaridan medallar qo'lga kiritildi. Ma'lumot uchun, 2013-yil



Rossiyaning Qozon shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon yozgi universiada o'yinlarida O'zbekiston sport delegatsiyasi jami 19 ta medalni (2 ta oltin, 7 ta kumush va 10 ta bronza) qo'lga kiritib, yakunda umumjamoa hisobida 24-o'rinni egallagan. 2019-yil Neapol (Italiya) shahridagi Butunjahon yozgi universiada o'yinlarida esa O'zbekiston sport delegatsiyasi tomonidan jami 8 ta medal (2 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza) qo'lga kiritilib, umumjamoa hisobida 19-o'rinni band etgan edi.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi").

VODIYLARNI YAYOV KEZGANDA...

Rishtonda "Turizm mahallasi"

Rishton tumanidagi Mamadali Topvoldiyev nomidagi mahallaga Farg'ona vodiysida ilk bor "Turizm mahallasi" maqomi berildi. Aytish joizki, bu maskanda Xalqaro kulolchilik markazi, hunarmandlar rastalari, oilaviy mehmon uylari hamda o'nlab turizm yo'nalishlari joylashgan. Eng muhimi, mahallada hunarmand avlodlariga avlodga o'tib kelishini ta'minlayotgan sulolalar ko'pchilikni tashkil etadi. Shu munosabat bilan bo'lib o'tgan tadbirda Butunjahon hunarmandlar kengashi prezidenti Saad al-Qaddumiy, xalqaro ekspertlar, sayyohlar, hunarmandlar, tadbirkorlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Turizm qo'mitasining vodiy miqyosida mazkur yo'nalishdagi birinchi sertifikat o'z egalariga topshirildi.



Qo'qon va Marg'ilon shahridan keyin bizning hududga ham "Xalqaro hunarmandlar shahri" maqomi berilishi kutilmoqda, - deydi Rishton tumani hokimi Bahodirjon Xolliqov. - Joriy yilning 19 - 21-sentyabr kunlari bo'lib o'tadigan Xalqaro kulollar forumi doirasida ushbu maqom haqidagi sertifikatni topshirish ko'zdatutilgan. Ayni paytda tumanga har yili 300 ming nafar mahalliy va xorijlik sayyoh tashrif buyurmoqda.

"TalabaExpo - 2025" kasb ko'rgazmasi

Farg'ona shahrida viloyat hokimligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda "O'zmilliy bank" AJ hamkorligida bitiruvchilar uchun kasb ko'rgazmasi tashkil qilindi.



Tadbir doirasidagi samimiy suhbatda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati haqida so'z bordi. Xususan, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga yaratilayotgan imkoniyatlar, ularning bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb etishga qaratilgan tizimli ishlar haqida batafsil

ma'lumot berildi. "TalabaExpo - 2025" kasb ko'rgazmasi davomida bitiruvchi yoshlar uchun "O'zmilliy bank" AJ tomonidan "Kelajakka qadam", "Xotin-qizlar tadbirkorligi" kabi dasturlar asosida taklif etilayotgan imtiyozli kreditlar bo'yicha taqdimotlar o'tkazildi, - deydi viloyat Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i To'yibov Boymatov. - Shuningdek, viloyatdagi 300 dan ortiq ish beruvchi korxonatashkilotlar va tadbirkorlik subyektlari 2 mingdan ziyod bo'sh ish o'rinlarini taqdim etishdi.

"Bunyodkor ayol" milliy forumi: e'tibor va rag'bat

Islom Karimov nomidagi viloyat teatr-konsert saroyida "Bunyodkor ayol" milliy forumi bo'lib o'tdi.



Ilk marotaba o'tkazilayotgan ushbu tadbir mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan hayotbaxsh g'oya ostida tashkil qilindi. Unda shahar-tuman hokimi o'rinbosarlari, faol ayollar, tadbirkorlar, "ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar vakillari ishtirok etdi.

Viloyatdagi ijtimoiy dalillariga kiritilgan opa-singillarimiz bilan ishlashda o'ziga xos tajriba maktabi shakllangan, - deydi Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Komila Kavlonova. - Xususan, birgina "ayollar daftari" bilan ishlash jarayonida yuz minglab xotin-qizlar bandligi ta'minlandi. Ayni jarayondahar bir mahalla, oila kesimida tizimli ishlarini tashkil etish hamda xotin-qizlar faolligini oshirish doimiy vazifalarimiz sirasiga kiritilgan. Bugungi tadbir ham shu yo'nalishdagi e'tibor va rag'bat namunasidir.

Tadbirda Farg'ona viloyati hokimi Xayrullo Bozorov, Bosh vazir o'rinbosari - Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayho Mahkamova qatnashdi.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

G'amxo'rlik Zamonaviy kompyuter jihozlari karvoni

Samarqand shahrining Ko'ksaroy maydonida "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" nomli kompyuter jihozlari karvoni saf tortdi. Gap shundaki, viloyatdagi umumta'lim maktablarining barcha kompyuter xonalari xatlovdan o'tkazilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan 135 ta maktabga zamonaviy kompyuter texnikalari ajratildi.



E'tiborli jihati, har bir jamlamada 17 tadan kompyuter bo'lib, ularning umumiy soni 2 295 tani tashkil etadi. Yoshlarning zamonaviy bilimlarni egallashida bunday jihozlarning o'rni katta. - Bu yangilikni ma'nau eskirgan kompyuterlari mavjud maktablar juda xursand qabul qildi, - dedi Ishxon tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i Gulchehra Saidmurodova. - Tumanimizdagi o'n ta maktabga bir komplekt dan kompyuter jihozlari berildi. Endilikda o'quvchilarimiz ulardan foydalanib axborot texnologiyalari bo'yicha ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
("Xalq so'zi").

Yangi avtodrom - mahorat maydoni

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Hazorasp tumani o'quv-sport texnika klubiga qarashli yangi avtodrom foydalanishga topshirildi.

Qulaylik

Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda so'zga chiqqanlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiruvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash borasida salmoqli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlashdi. Yangi qurib ishga tushirilgan avtomobil o'quv-mashq maydoni ana shu ezuq maqsadlarga xizmat qiladi.

Avtomototransport haydovchilari tayyorlash maktablarida nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlarning uyg'unligini ta'minlash maqsadida viloyatimizda innovatsion texnologiyalar bilan jihozlangan uchinchi avtodromni ishga tushirdik, - deydi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi raisi Davronbek Ibrohimov. - Shu bilan bir qatorda, mazkur avtomaktablar uchun yangi yengil va yuk avtomobillari xarid qilindi. Amaliy mashqlarni bunday sharoitlarga ega avtodromlarda o'tkazgan haydovchilar zarur ko'nikmalarga ega bo'ladi va bu kelgusida yo'l-transport hodisalarining oldini olishga yordam beradi.

Odilbek ODAMBOYEV
("Xalq so'zi").



TEPAMIZDA OFTOB CHARAQLAB TURSA...

"Mahallada duv-duv gap" filmi qahramoni Mehrixon aya aytganidek, bu tinib-tinchimagan odamlar nimalarni o'ylab topishmaydi-ya. Qarang, tepamizda charaqlab turgan quyosh nuri elektrga aylanib, tularimizni yorug' qilmoqda. Odatdagi yoritish manbai katta miqdordagi resurslar hisobiga hosil bo'lishini inobatga olsak, Quyosh - beminnat quvvat manbai. U charaqlab tursa bas, shuning o'zi kifoya. Yurtimizda esa yilning 320 kuni quyoshli. Bu katta imkoniyat. Endi keling, bir tahlil qilaylik, o'tobning beminnat nuri bizga qancha foyda keltiryapti?

"Yashil" energiya

Birgina misol. Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasida joriy yilning 6 oyida 934 ming kVt-soat elektr energiyasi iqtisod qilindi. Aytish lozimki, ushbu tejalgan quvvat miqdori 4 673 ta xonadonning mazkur manbaga bo'lgan bir oylik ehtiyojini qoplatadi. Shuncha energiya quyosh nuri orqali hosil qilingani uchun 260,3 ming kubometr tabiiy gaz tejab qolindi. Gap shundaki, bu natijalarga nurxonaning "yashil" stansiyasi, ya'ni 2022 - 2025-yillar davomida o'rnatilgan umumiy quvvati 1,9 MVtli quyosh panellari tufayli erishildi.

Mana, ko'rdingizmi, o'tobning beminnat nuri qancha resurslarni tejashga ko'mak beriyapti. Faqat bu emas, quyosh nuri suvni isitib berayotgani ham tejamkorlikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunga umumiy hajmi 6 200 litr bo'lgan 31 ta quyosh suv isitish qurilmasi o'rnatilishi orqali korxonaning asosiy va yordamchi binolariga joriy yilda 15 Gkaldan ziyod issiqlik energiyasi yetkazib berilganini misol qilib keltirish mumkin. Qolaversa, buning evaziga 2,4 ming kubometr tabiiy gaz tejalganini aytmaymizmi?

Ayni paytda "yashil" energiya korxonamiz xodimlarining xonadonlariga ham kirib bormoqda, - deydi Sirdaryo IES bosh direktori

Bahrom Sobirov. - Shu yilning fevral oyidan boshlab foizsiz imtiyozli ssuda asosida jamoamiz a'zolarining uyiga quyosh panellari o'rnatib berish boshlangan edi. Hozirgacha 113 ta xonadon ana shunday qulay va uxlusiz energiya ta'minotiga ega bo'ldi. Demak, quyoshning beminnat nuri xonadonlarga quvvat manbai bo'lib kirib bormoqda.

Qaysi sohada va qayerda bo'lmasin, "yashil" energiyani foydasi katta bo'lmoqda. Ya'ni quyosh panellari korxonalariga elektr energiyasi yetkazib berishi barobarida, u orqali hosil qilingan ortiqcha tokdan qo'shimcha daromad olinmoqda. Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarga o'z iste'molidan ortiqcha ishlab chiqarilgan quvvat uchun 1 kVt hisobiga 1000 so'mdan subsidiya to'lab berilishi belgilangan ham "yashil" energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Quyosh panellari o'rnatishni istagan yuridik va jismoniy shaxslar uchun keng ko'lami yordam ko'rsatilmogda, - deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ "Energosavdo" filiali Sirdaryo bo'linmasining qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobini yuritish bo'limi boshlig'i Rustam Anorqulov. - Xususan, texnik shartlar va loyiha-hujjatlarini rasmiylashtirishga ko'mak hamda

Ahmadali SHERNAZAROV
("Xalq so'zi").

Reklama

"Elektron Realtor" MChJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar o'tkazish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi

"O'zsanotqurilishbank" ATB bilan tuzilgan 2025-yil 18-iyundagi №18-2025ER sonli shartnomaga asosan "O'zsanotqurilishbank" ATB balansida bo'lgan mulklarning quyidagisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142 sonli qaroriga asosan sotuvga chiqarilmogda:

- Yunusobod tumani, "Turkiston" MFY, Moyqo'rg'on ko'chasi, **276-277**-uyda joylashgan hovli-joy, boshlang'ich bahosi **6 498,6 mln.** so'm. Savdoga qo'yilgan mulk bilan

bevositajoyigachiqib tanishish mumkin. Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar **"e-rieltor.uz"** platformasi orqali arizaberishlari mumkin.

Call-markaz: +99855-517-22-20. Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

Toshkent Fotosuratlar uyida "Do'stlik nigohi" nomli qardosh xalqlar fotosuratlari ko'rgazmasi ochildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G 642, 13 107 nusxada bosildi. Hajmi - 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mulligiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyrga kompyuter markazida terildi hunda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir F. Bozorov.
Musahhib S. IsloMOV.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzil:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.20 Topshirildi - 00.05 **1 2 3 4 5 6**